

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025
IJTIMOIIY
FANLAR

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

V.O.Gofurova

Environmental and socio-cultural impact of tourism	6
--	---

FALSAFA

M.A.Mamatov, Sh.M.Mallayeva G.R.Mannobova

Yangi O'zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik siyosati amalda (Farg'ona viloyati misolida)	10
---	----

A.A.Qambarov, M.A.Abdusalimova

Qo'qon adabiy muhitini rivojlantirishda ayollarning ro'li	14
---	----

A.A.Abduvaxidov

Ma'rifatparvarlik fenomenining asosiy g'oyasi, vujudga kelishi va rivojlanishi	18
--	----

I.A.Asatulloev

Erix Frommning ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida "sog'lom jamiyat"ni shakllantirish vazifalari va istiqbollari	23
---	----

S.S.Sodiqov

Yangi O'zbekistonni barpo etishda yoshlar faol ijtimoiy pozitsiyasining ahamiyati	27
---	----

A.A.Abdusalomov

Jadidchilikda tarix va ta'lim masalalari.....	33
---	----

M.R.Axmadova

Ma'naviy targ'ibot ishlarini yuksaltirishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning o'rni	36
---	----

Sh.A.Dolimov

Yangi O'zbekistonda maktab ta'limidagi modernizatsiya jarayonlarining sinkretlashuv xususiyatlari va uning ijtimoiy-falsafiy jihatlari.....	40
---	----

G.M.Ravshanova

Axborotlashgan jamiyat rivojining innovatsion-ma'rifiy asoslari.....	43
--	----

D.S.Raxmatova

Xoja Orif Revgariy hayoti va ma'naviy merosi	48
--	----

N.T.Xolikov

Globallashuv sharoitida egoistik tafakkur shakllanishining falsafiy-konseptual tahlili	54
--	----

S.S.Mamatkadirov

Yoshlar mediamadaniyatini rivojlantirishda davlat axborot siyosatining ustuvor vazifalari va yo'nalishlari	58
--	----

Sh.E.Daniyarov

Jadidlar harakati va madaniy uyg'onishning falsafiy asoslari.....	62
---	----

U.B.Maxtumova

Ommaviy madaniyat va yoshlar: madaniy qadriyatlarga tahdid yoki imkoniyat.....	67
--	----

O'.M.Xamroqulov

Yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirishda milliy qadriyatlarning o'rni	70
---	----

Y.Y.Turobov

XVIII-XIX asr mutafakkirlari merosida axloq tamoyillari	75
---	----

Sh.M.Xaydarova

Yangi O'zbekistonda axloqiy va diniy qadriyatlarni yakdil maqsadga yo'naltirishning istiqbolli vazifalari	82
---	----

D.M.Xusanov

Postmodern jamiyatda axloqiy qadriyatlarning o'zgarishi dialektikasi	86
--	----

F.M.Usarov

Axborotlashgan jamiyat sharoitida jamoat xavfsizligi konsepsiyasini amalga oshirishning strategik asoslari.....	90
---	----

M.M.Mamasaliyev

O'zbekistonda o'zgalarga toqatsizlikni kuchayib borishiga sabab bo'layotgan ijtimoiy muammolar tahlili.....	93
---	----



UO'K: 323.2+316.75+37.034

MAFKURAVIY TAHIDILARNI BARTARAF ETISHDA MILLIY G'OYANING RO'LI**РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕИ В УСТРАНЕНИИ ИДЕОЛОГИЧЕСКИХ УГРОЗ****THE ROLE OF THE NATIONAL IDEA IN ELIMINATING IDEOLOGICAL THREATS****Abbosova Shoxida Turdaliyevna** 

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doctori, (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada hozirgi globallashuv davrida ma'naviy hayot va mafkuraviy jarayonlarda tobora xatarli tus olib borayotgan g'oyaviy tahdidlar, ularni bartaraf etish omillari, milliy g'oy va qadriyatlar tadrijiyligi, ularning ijtimoiy hayotning barcha tabaqalariga bog'liq masalalari ilmiy asoslangan.

Аннотация

В настоящей статье научно обоснованы идейные угрозы, факторы их преодоления, актуальность национальных идей и ценностей, которые в настоящее время в условиях глобализации приобретают все более опасный характер в духовной жизни и идеологических процессах, вопросы, касающиеся всех слоев общества.

Abstract

This article scientifically substantiates ideological threats, factors of their overcoming, the relevance of national ideas and values, which are currently becoming more and more dangerous in the context of globalization in spiritual life and ideological processes, issues concerning all strata of society.

Kalit so'zlar: qadriyatlar, jamiyat barqarorligi, barqaror rivojlanish maqsadlari, milliy mafkura, siyosiy jarayonlar, tinchlig, tahdid.

Ключевые слова: ценности, стабильность общества, цели устойчивого развития, национальная идеология, политические процессы, мир, угроза.

Key words: values, stability of society, sustainable development goals, national ideology, political processes, peace, threat.

KIRISH

Uchinchi renessans ostonasida jamiyat ijtimoiy barqarorligi va milliy g'oyaning, milliy yuksalish va rivojlanishning asoslari sifatidagi ijobiy ta'siri ortishiga alohida o'rin ajratilgan. "Xalqimizning tinchligi, jamiyat barqarorligi, umuminsoniy, milliy va diniy qadriyatlarimizga qarshi qaratilgan, milliy o'zligimizni, xalqimizning asrlar davomida shakllangan hayot tarzini barbad qilishga yo'naltirilgan tahdidlarga qarshi kurashishning samarali vositalarini ishlab chiqish..."[1], muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Zero, jamiyat barqaror taraqqiyotining rivojlantiradigan kuch - milliy g'oya hisoblanadi. Milliy g'oyaning jamiyatdagi eng muhim vazifasi xalqni-xalq, millatni-millat etishga xizmat qiluvchi benazir quvvat va ma'naviy-ruhiy poydevor ekanligidir. Muayan taraqqiyotning yangi bosqichida jamiyat ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda kechayotgan voqea-hodisalarning mazmun-mohiyati va yonalishiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning o'tgan davrlarga nisbatan butunlay boshqacha ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Demak, uni to'laqonli idrok etish uchun yangicha yondashuvlar va tamoyillarga, konseptual g'oyalarga murojaat qilishimiz lozim.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYA

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov[2], shuningdek, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning asarlarida[3] milliy g'oy va qadriyatlar tadrijiyligi, ularning ijtimoiy hayotning barcha tabaqalariga bog'liq masalalari o'z yechimini topganligini ko'rishimiz mumkin. Hozirgi davrda "Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasini ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan"[4] bu esa ijtimoiy-ma'naviy hayotning muhim tarkibiy elementi ekanligida namoyon bo'ladi.

Milliy g'oy zarur paytda madad sifatida tashqaridan tiqishtiriladigan omil emas. U, birinchidan, millat, jamiyatning bir necha ming yillik tarixiy tajribasining mahsuli bo'lsa, ikkinchidan, asrlar osha

FALSAFA

xalqning qadriyatiga aylanib, unga ma'naviy ozuqa beradi, uchinchidan, jamiyatdagi barcha tabaqalar uning ta'siri ostida tarkib topadi. Shunday ekan, milliy goy jamiyat barqarorligi, tadriijyligini ta'minlash nuqtai nazaridan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va intellektual omillar bilan bir safda turadi. Qadriyatlar orasida nisbatan tashqi ta'sirlarga ancha kam beriladigan qadriyat sifatida milliy goy jamiyat uchun dolzarb hisoblanadi.

2030-yilgacha bo'lgan davrda BMT Global kun tartibining barqaror rivojlanish maqsadlari[5] ham jamiyat barqarorligida milliy goyaning o'zni muhim ekanligini asoslamogda. Jamiyat barqarorligini ta'minlashda aholi tafakkurida milliy goyaning ma'naviy-axloqiy jihatlari yoshlar ongi va qalbiga singdirishning dinamik qonuniyatlari vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash "Yangi milliy mafkura"ning strategik konsepsiyasini mustahkamlash zarurati ekanligi masalasi kun tartibiga qo'yilgan.

Bugungi murakkab, voqealarga boy jamiyatimiz taraqqiyotida milliy goya konsepsiyasini amalga oshirishning dialektik bog'liqligi hamda zamonaviy yoshlar ongi va qalbini qadriyatlar tizimi asosida shakllantirish zarur. Yangi O'zbekistonda jamiyat barqaroq yuksalishiga "milliy yuksalish"ning muhim omili sifatida goya va tamoyillarning pragmatik yuksalishi alohida ahamiyatga ega. Bu borada Prezident Shavkat Mirziyoev mamlakatdagi turli ijtimoiy qatlamlar salohiyatini birlashtira oladigan o'ziga xos bir ma'naviy kuch, milliy goy zarurligini ta'kidladi.

Mazkur fikrlar ma'naviy makon unsurlaridan hisoblangan goyaning, qadriyatlar va ideallarning millat, xalq manfati bilan uyg'unlashishi orqali, ma'rifiy siyosiy lashuvi pirovardida milliy goy darajasiga ko'tarilishi, alohida ahamiyatga ega va O'zbekistonning Yangi taraqqiyotida milliy go'yaga doir nazariy hamda amaliy qarashlar tizimini qisman boyitishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, dunyoning hamma mintaqalarida goyaviy tayanch, salohiyat va kuch-qudrat omilining nufuzi, roli oshib borish jarayonining ob'ektiv hamda subyektiv sabablarini chuqurroq idrok etishga ko'maklashadi. Uchinchidan, jamiyat uchun ulkan ma'naviy-ruhiy resurs vazifasini o'tashi bilan bir qatorda, milliy goyani mutloq siyosiy jarayonlar, ya'ni jamiyatni buguni va ertasi bilan uyg'unlikda tahlil qilish zarurligiga ishora qiladi. To'rtinchidan, ichki va tashqi salbiy ta'sirlarni zaiflashtirish hamda ularning zararli xurujlariga nisbatan to'siq yaratish omili ekanligini anglashga ko'maklashadi va beshinchidan, davlatimiz uchun milliy taraqqiyot yo'lini yanada yuksaltirishda, milliy manfaatlarni ta'minlash borasida ishonarli omil, milliy ustuvorliklar atrofida xalqimizni birlashtiruvchi kuch ekanligini tushunishga yordam beradi.

"Bir jamiyatdan boshqasiga o'tilayotgan davrda goyalar tizimi, uning amaliyotiga doir jarayonlar pirovard natijada umumiy tizimdagi asosiy bog'lanishlarga bo'ysunmay qoladi, uni boshqa sifatga o'tishini zaruratga aylantiradi. Bu sifat o'zgarishi yangi goyalar tizimining shakllanishiga olib kelishi mumkin. Ushbu jarayon esa dialektik inkorni inkor, vorisiylik va yangilanish sifatida amalga oshadi"[6] Shu nuqtai nazardan, jamiyatning, ya'ni insoniyatning avvalgi va keyingi mavjudligiga zid bo'lmagan rivojlanishidir. "Ishonchim komilki, deydi Erix From, ta'lim-tarbiya berishdan maqsad, yosh avlodga insoniyat ma'naviy merosining eng yaxshi mahsullarini o'rgatishdan iborat. Lekin bashariyat ma'naviy merosining aksariyat qismi yozma adabiyotlarda jamlangani uchun ularga singdirilgan haqiqatlar o'qituvchi shaxsiyatida yoxud amaliy hayot va jamiyat qurilishida ro'yobga chiqqan taqdirdagina ahamiyat kasb eta oladi. Amalga oshgan, ro'yobga chiqarilgan goyagina insonga ta'sir ko'rsatadi; quruq so'zlar yig'indisi bo'lib qolayotgan goyaviy maqsadlar hech qanday ta'sir kuchiga ega bo'la olmaydi"[7]. Bu esa jamiyatda o'zgarishlarning innovatsion ehtiyojidan kelib chiqishini anglatadi. O'z navbatida ijtimoiy munosabatlar barqarorligini ham shakllanishiga ham sabab bo'ladi. "Ijtimoiy barqarorlik - ijtimoiy tuzumning samarali faoliyat ko'rsatishiga va rivojlanishiga keng imkon yaratib beruvchi mustahkam holati bo'lib, aholining tinch, samarador mehnati va farovonligining ta'minlanishi, sog'lom turmush tarzining shakllanishi, ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha jabhalari taraqqiyoti uchun mustahkam sharoitning mavjudligi, ijtimoiy muvozanatning saqlanishidir. Ijtimoiy barqarorlik jamiyat taraqqiyotining birinchi sharti bo'lib, ijobiy va innovatsion o'zgaruvchanlikka zamin hozirlaydi va jamiyatning jadal rivojlanishini ta'minlaydi"[8]. Bu o'rinda barqarorlik ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lsagina uning darajasini anglab etish oson bo'ladi. Bizningcha, milliy goyaning jamiyatdagi o'zni barqarorlik bilan innovatsialashganda ijobiy ta'sirga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarning salbiy ta'siri ortib, odamlarning ongi va qalbi uchun kurash kuchayib borayotgan bugungi kunda yurtimiz sarhadlari va mamlakatimiz hayotining barcha sohalarini goyaviy himoyalash ishlari zamon talablari, islohot va yangilanishlar sur'atidan ortda

qolmoqda"[9]. Zotan, jamiyat taraqqiyoti va millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – milliy g'oyadir. Milliy g'oyaning jamiyatdagi eng muhim vazifasi yosh avlodning kelajagi va vatan taqdiri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan jarayonning rivojlanishidir.

NATIJA VA MUHOKAMA

Modomiki, g'oyalar kishilar faoliyatini muayyan maqsadlar atrofida birlashtirishga qaratilgan ekan, bunda xalqning uyushishi, birgalikda faoliyat ko'rsatishining ichki, ruhiy imkoniyatlari ham katta ahamiyatga ega hisoblandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish Konsepsiyasi" loyihasida ta'kidlanganidek, milliy g'oya sog'lom fikrlaydigan har bir shaxs va fuqaroda milliy g'urur-iftixor, or-nomusni uyg'otadigan, o'zlikni anglatadigan, xalqning maqsadi va orzu umidlari ro'yobga chiqishiga kuch-qudrat beradigan, millatni harakatga keltiradigan qudratli omildir. Bu esa, kishilar dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayonning yangi bosqichini boshlab beradi. Jamiyat ma'naviy qiyofasini o'zgartirish bugungi muammolarni oldini olishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda ustuvor ahamiyat kasb etadi. Jamiyatning ma'naviy yuksalishi taraqqiyotimizni yangi bosqichida oshirilishi lozim bo'lgan strategik maqsadlarga asos bo'ladi. Shu bois, "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan dasturiy g'oya asosida, yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarini shakllantirish – o'ta sharafliligi-vazifadir"[10]. O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida shaxs hayotini farovonlashtirishga bo'lgan munosabat milliy yuksalishga bog'liqdir. Shu sababli aholiga g'amxo'rlik qilish ob'ektiv ravishda kishilik borlig'ining ma'nan va jisman mavjudligini saqlab qolish vositalariga bo'lgan azaliy ehtiyojlarini birinchi zaruriyatiga aylantiradi.

XULOSA

Millat o'z milliy g'oyasining umuminsoniy muammolar hal etilishiga nisbatan ijobiy ta'siri, bir tomondan milliy, ikkinchidan, umuminsoniy manfaatlarni mushtaraklashtirish salohiyati bilan bog'liq bo'lgan jarayonda shakllanadi. Hozir jahonda shunday vaziyat shakllandiki, davlatlar o'rtasida adovatni keskinlashtirish, ularni o'z yo'lga va milliy manfaatlariga qarshi himoya usullarini joriy etmasdan yo'lga qo'yib bo'lmaydi. Zero, millat qanchalik boy tarixga, madaniy merosga, iqtisodiy va harbiy qudratga ega bo'lmasin, boshqa xalqlarni oyoq-osti qilish, kamsitish, boyliklarini talash yo'li bilan o'z kuchi va imkoniyatlarini saqlab qola olmaydi. Boshqa xalqlar bilan teng huquqli zamonaviy hamkorlik hamda sheriklik munosabatlarida bo'lish ham milliy mohiyatdan kelib chiqadi va shu tariqa, ko'plab xalqlar hamda elatlar umumiy manfaatlar va maqsadlar yo'lidagi harakatini bog'laydi[11]. Darhaqiqat, bugungi kunda barqarorlik va istiqbolga ishonch masalasi davlat ahamiyatiga egadir.

Bugun O'zbekiston Respublikasida ayni vaqtda 130 dan ortiq millat va elatlar istiqomat qilmoqda. Bu esa ulardagi millatlararo hamjihatlikni mustahkamlash, barqaror rivojlanishga erishish imkoniyatlarini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Bunda, shubhasiz, milliy g'oyaning o'rni beqiyos. O'zbekistonda yashayotgan insonlar millati, tili, dini, irqi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, barcha fuqarolar qonun oldida tengligi Konstitutsiyamizning 18-moddasida belgilab qo'yilganligi. Ya'ni bu fuqarolar yagona xalq vakillari ekanligi ta'kidlangan. Ularni yagona maqsad yo'lida birlashtirishda har bir rivojlangan davlatda muhim demokratik qadriyat sirasiga kirgan milliy g'oyaning o'rni va roli ahamiyatlidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh.M.Mirziyoyev Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2021. - B. 278.
2. Karimov I.A. Asarlar to'plami, 1-24 jildlar. - Toshkent: O'zbekiston, 1996-2015.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy Taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. Toshkent: O'zbekiston, 2017. - B. 592.; Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy Bahodir. 2 - jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2018. - B. 508.; Niyati ulug'xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2019. - B. 400.; Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. 4-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2020. - B. 456.; Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2021. - B. 464.
4. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 19 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi <https://www.gazeta.uz/uz/2021/01/19/selector/>
5. United Nations (2017) Resolution adopted by the General Assembly on 6 July 2017, [Work of the Statistical Commission pertaining to the 2030 Agenda for Sustainable Development \(A/RES/71/313\)](#).
6. Q.Nazarov. G'oyalar falsafasi tajribaviy qo'llanma. - Toshkent: Akademiya, 2011. - B. 244.
7. Abduhamid Pardayev tarjimai. "Jahon adabiyoti" jurnali, 2003 yil, 10-son. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/falsafa/erix-fromm-mening-etiqodim>
8. Saitqosimov A.I. Fuqarolik jamiyatini barpo etishda ijtimoiy sohani innovasion rivojlantirish qonuniyatlari. Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand, 2019. – B 18.

FALSAFA

9. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 129.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: O'zbekiston. 2020. – B. 28.
11. Yurtimiz taraqqiyoti va barqarorligini ta'minlashda milliy g'oy strategiyasining istiqbollari **FarDU. ILMIY XABARLAR**. Fargona 2024 № 6. 443-448